



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



## FITRAT ASARLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING ALLUZIV TRANSFORMATSIYASI

### ALLUSIVE TRANSFORMATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE WORKS OF FITRAT

**Imomova Ismigul Sirojiddin qizi**

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Toshkent davlat o‘zbek tili adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: [ismigulimomova@gmail.com](mailto:ismigulimomova@gmail.com)

ORCID:0009-0002-7641-2741

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./ZBRZ5251](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./ZBRZ5251)

**Annotatsiya:** *Har bir millatning boy ma’naviy merosining ajralmas bir bo‘lagi sifatida yashab kelayotgan paremiologik birliklar, ya’ni maqol, matal va iboralarni o‘rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg‘ular tasvirini ko‘rsatish doimo muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Fitrat dramalarida qo‘llanilgan maqollarning, iboralarning va alluziv nomlarning madaniyatimizda tutgan o‘rnini aniqlash, lingvomadaniy jihatdan o‘rganish, semantik jihatdan tasniflash masalalari yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *paremiologik birliklar, maqol, matal, ibora, alluziya, sema, semema.*

**Annotation:** *The study of paremiological units-namely proverbs, sayings, and idioms - which exist as an integral part of the rich spiritual heritage of every nation, reflecting the life of the people and the portrayal of human emotions, is always of significant importance. This article highlights the issues of determining the role of proverbs, phrases, and allusive names used in Fitrat's dramas within our culture, analyzing them from a linguoculturological perspective and classifying them based on semantic characteristics.*

**Keywords:** *paremiological units, proverb, saying, phraseological unit, allusion, seme, sememe.*

Hikmatli so‘zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o‘tmish bilan hamnafaslik hissini uyg‘otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko‘prikdir. Hikmatli so‘zlar, maqollar - noma’lum shoirlarning yurak satrlari, xalq iste’dodining masofa bilmas shu’lari. Badiiy asarlar mazmunan va shaklan jihatdan mutanosib bo‘lsagina, yetuk asar darajasiga chiqa oladi. Paremiologik birliklar barcha tillarda individual o‘rganilgan va hali ham tadqiq etilayotgan hodisadir. [Umarxo‘jaev,2010: 55].



Rus tilshunosi V.V.Vinogradov frazeologizmlarning o'rganilishi yuzasidan o'z fikrlarini bayon qilar ekan, shunday deydi: “Frazeologiya termini dunyo tilshunosligida 1558-yil ingliz adabiyotshunosi Neander tomonidan ilk marta qo'llangan” [Виноградов,1978: 8]. Yana bir boshqa manbada keltirilishicha bu atama ilk bor 1928-yilda Y.D.Polivanov tomonidan qo'llanilgan deyiladi: “Men morfologiyaga nisbatan sintaksis qanday aloqada bo'lsa, leksikaga nisbatan xuddi shunday munosabatga kirishuvchi maxsus fanni “frazeologiya”degan termini qo'llashni lozim topdim”. “Frazeologizm – bu tuzilishi jihatdan so'z birikmasiga yoki gapga teng bo'lgan, umumlashgan ma'no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan, turg'un leksik-semantik birlikdir”[Маматов,1991: 2007].

Olim N.M.Shansky frazeologizmlarni to'rt turga bo'lib o'rganadi: 1. Frazeologik chatishmalar; 2. Frazeologik butunliklar; 3. Frazeologik qo'shilmalar; 4. Frazeologik iboralar. Maqollar – bu xalqning donoligini, millatning ruhini, uning madaniyatini ko'rsatadigan xalq og'zaki ijodining gavharidir. Maqollarni, xususan, xalq ijodiyotini o'rganish, tadqiq qilish bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hatto maqollar bilan, ularni asarlarda qo'llanishi bilan tilimizda ham tarjima ishlari ham olib boriladi. Sh.Rahmatullayev, Y.Pinxasov, Q.Samadov, Sh.Shoahmedov, X.Abdurahmonov, M.Sadriddinovalarning ishlari, shuningdek, G'aybulla as-Salomning 1966-yil nashr etilgan “Til va tarjima”, 1961-yilgi “Maqola va idiomalar tarjimasini” ishlari ahamiyatga molikdir. O'zbek tilshunosligida xalq maqollarining to'laqonli sinonimik lug'ati esa B.Jo'rayeva tomonidan tuzilgan. “Xalq maqoli har bir kishi amal qilishi lozim bo'lgan o'ziga xos axloqiy hodisalar kodeksidir”. Maqollar orqali matn mazmuni anglashiladi. Asarlarda turli xil voqea-hodisalar, turli xil shaxslar obrazining tasvirini berishda, voqealarni to'ldirib kelishda eng maqbul usul maqollarning qo'llanilishidir [Yo'ldoshev,1992:37].

Xalq maqollarining o'zbek xalq og'zaki ijodida o'rganilish tarixi juda uzoq va qiziqarli. Maqollar bugungi kunga qadar barcha xalqlarning xalq og'zaki ijodkorlar tomonidan yuksak istak bilan o'rganilgan va bugungi kunda ham bu jarayon ustida chuqur izlanishlar olib borilyapti. Xalq o'zining hayotiy tajribasidan olgan xulosalarini, falsafiy mulohazalarini har doim maqollar orqali ifodalagan. O'zbek maqollari mavzu jihatidan xilma-xil va rang-barangligi bilan boshqa xalq maqollaridan ajralib turadi. Xalqimiz yaratgan maqollar mazmun jihatdan chuqur bo'lishi bilan birga badiiy jihatdan ham mukammaldir. Ma'lum bo'ladiki, xalqimiz yaratgan maqollar faqat mazmun jihatdan emas, badiiy jihatdan ham ajoyib so'z san'ati namunalari sifatida ishlatilishi mumkin. . Asarda “Yegan tuzlar ko'r etsin uni”– Bu xalq orasida keng tarqalgan maqol (qarg'ish ohangidagi maqol) bo'lib, ma'nosi “non-tuzini yegan joyiga



xiyonat qilgan odam jazosiz qolmasin” degan ma’noni bildiradi [Fitrat,2000:182]. Och gornim, tinch qulog‘im – qorin och bo‘lsa ham, qulog‘i tinch bo‘ladi. Ya’ni ochlik odamni befarq, sabrsiz qiladi, nasihat yoki suhbat foyda bermaydi. Bu maqol insonning moddiy yetishmovchilikdan ko‘ra ruhiy xotirjamlikni ustun qo‘yishini bildiradi. Qorin och bo‘lsa-da, kishi turli g‘alva va muammolardan yiroq bo‘lishni afzal ko‘radi. Fitrat dramalarida tarixiy alluziv nomlardan juda keng foydalanilgan. Masalan, Farhod otaliqni ko‘rdingizmi? gapida “Farhod” nomi orqali Alisher Navoiy dostonidagi mashhur qahramon – “Farhod va Shirin” voqealariga adabiy ishora qilinmoqda. Bu asar orqali Farhod otaliqning sadoqati, mashaqqatli mehnati, fojeali taqdiri Farhodga nisbatan olingan deb qarajak bo‘ladi. Asarda tarixiy talmehlar juda ko‘p uchraydi. Masalan, “Nodirshoh tomonidan yuborilgan qo‘shinning Qarshidan qaytishi uchun..”. Bu yerda muallif Nodirshohning Movarounnahr yurishlari kabi mashhur tarixiy voqealarga ochiq tushuntirmasdan ishora qilmoqda – bu tarixiy talmeh hisoblanadi. Ibrohim kenagasdan bittasini qo‘yarmiz. Muallif shu mashhur tarixiy shaxsga ishora qilayapti. Ibrohim kenagas, Abulfayzxon nomlarining tilga olinishi – tarixiy alluziya hisoblanadi. Bundan tashqari Ibrohimbiy, Hakimbiy, Jiyanqulibiy obrazlari ham tarixiy shaxslar bo‘lganligi uchun tarixiy alluziyalarga misol qilib olamiz. Fitrat dramalarida muallifona iboralardan ham keng foydalanilgan. Ularga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin [Fitrat,2000:196]. Uf.. ko‘zlarim qong‘a to‘ldi. Ko‘zlarim qong‘a to‘ldi iborasi ko‘chma ma’nodagi ibora bo‘lib, juda qattiq jahli chiqish, g‘azabga to‘lish, o‘zini zo‘rg‘a tiyib turish holatini bildiradi. O‘ldurg‘anlarim meni aylanturub olarlar, siralanib yonimdan o‘tarlar. Xon ko‘plab odamlarni o‘ldirib yuborganligi bois kechalari uyquga ketganda uning ko‘z oldidan siralanib yonimdan o‘tar ya’ni o‘ldirgan odamlari ko‘pligi bois ketma-ket ko‘z o‘ngidan o‘tar edi. Dunyoning qora chiziqlarini o‘qimoq – hayotdagi qiyinchiliklar, muammolar va og‘ir hodisalarni o‘rganmoq, ularni tushunib saboq olmoq. Hayotdagi yomonlik va sinovlardan saboq olmoq. Boshiga ish tushmoq – odam qiyin ahvolga tushib qolmoq, muammo yoki tashvishga duch kelmoq ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lib, Rahimbiy tomonidan aytilgan. Fitrat maqol va iboralarni shunchaki ishlatmay, ularga milliy ozodlik va erk g‘oyalarini singdirib, kuchli alluziv ma’no yuklagan. Motam ingramoq – qattiq qayg‘uga botib, dardini ich-ichidan nolib, ohista yig‘lab azob chekmoq. Bu ibora odatda yaqin kishining o‘limi yoki katta musibat bilan bog‘liq holatlarda ishlatiladi. Xon bolalari kelganda ular bilan yig‘lamsirab xayirlashadi va natijada xon motam ingrash qilib yig‘lash jaroyinda tasvirlangan. Xon nomozni tez bitirdi – namoz ibodatini to‘liq ado etdi, ya’ni boshlagan namozini oxirigacha o‘qib tugatdi. Bu ibora namozning barcha rukn va shartlari bajarilgan holda yakunlanganini bildiradi. O‘ldirish uchun tirishmoq – biror kishini o‘ldirish niyatida harakat qilmoq joniga qasd qilishga

urinish [Fitrat:2000,205] . Bu ibora qat'iy va xavfli niyat borligini, lekin harakat amalga oshganini shart emas, urinish bo'lganini bildiradi. Ulfat nutqidan aytilgan ushbu ibora xonga nisbatan aytilgan bo'lib, Rahimbiy meni o'ldirish uchun tirishdi deb Ulfat xonga qarata aytadi.

**XULOSA.** O'zbek xalq maqollari xalqning hayotiy tajribasi va falsafiy xulosalarini o'zida jamlagan bo'lib, ular ham mazmunan chuqur, ham badiiy jihatdan mukammal so'z san'ati namunalari hisoblanadi. Fitrat asarlarida ham aynan o'ziga xos iboralar, xalq maqollari va tarixiy alluziyalarni ko'p uchratish mumkin. Maqolada alluziyalarga misollar keltirilgan, uslubiy semantik jihatdan ochib berilgan. Xalq maqollarini qo'llash orqali esa, insoniy sadoqat, xiyonatning oqibatlarini kabi axloqiy tushunchalar xalqning o'tkir iboralari orqali ta'sirchan tarzda ifodalangan. Fitrat dramalarida, masalan, “Abulfayzxon” dramasi murakkab va g'oyaviy jihatdan boy asarlaridan biri. Bu asarda muallif “taxt va baxt”, “zulm va zavol” kabi tushunchalarni maqol hamda iboralar orqali juda ustalik bilan ifodalagan.

#### Adabiyotlar:

1. Abdurauf F. Tanlangan asarlar. I jild” – T.:Ma'naviyat.2000. –B.180-219
2. Маматов А.Э. Хозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. –Тошкент: 1991. –Б. 207-272; Маматов А.Э. Проблемы лексико-фразеологической нормы в современном узбекском литературном языке. АДД. –Ташкент: 1991. –С. 40-47.
3. Mamatov A.E.”O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi.-T.:1997.-B.37.
4. Рахматуллалыев Ш. “O'zbek tili frazeologiyasining ba'zi masalalari”.-T.:Fan.1996.-B.66
5. Umarxo'jaev M.E. Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi. –Andijon: ADTPI, 2010. –B. 55.
6. Виноградов В.В. “Лексикология и лексикография”.-M.:1977.-С.8.
7. Yo'ldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir.-T.:O'TA.1992.3-son.-B.37-42.
8. Rashidova, N. B. (2021). Active, common words-arabisms of the sphere of education in the uzbek language. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(11), 574-579.
9. Turdiyevna, K. Z., & Ruzimovna, K. G. (2021). The role of zoonyms in the expression of axiological content. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1430-1434.